

 perfectum	Cookie-fayllardan foydalanish siyosati	K5-COOKIE-001

«Rubicon Wireless Communication» AJ Cookie-fayllardan foydalanish siyosati

MUNDARIJA

1.	ATAMALAR VA QISQARTMALAR.....	3
2.	HUJJATNING MAQSADI.....	4
3.	QO‘LLANILISH SOHASI	4
4.	UMUMIY QOIDALAR.....	4
5.	COOKIE-FAYLLARNI YIG‘ISH VA ULARDAN FOYDALANISH MAQSADLARI.....	5
6.	COOKIE-FAYLLARNI BOSHQARISH	6
7.	COOKIE-FAYLLARNI SAQLASH MUDDATI	6
8.	KELISHUVGA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH.....	6

1. ATAMALAR VA QISQARTMALAR

Atamalar	Ma'nosi
Axborot	manbasi va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, hodisalar, voqealar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar.
Axborot xavfsizligi (AX)	axborot va axborot tizimlarini ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, o'zgartirish, yaxlitligini buzish, yo'q qilish yoki boshqa tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Axborot xavfsizligining asosiy maqsadi — axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
Axborot tizimi	qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va axborotni vizuallashtirish maqsadida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish uchun mo'ljallangan o'zaro bog'liq komponentlar majmui bo'lib, unga apparat vositalari (hardware), dasturiy ta'minot (software), ma'lumotlar bazalari, telekommunikatsiya tizimlari, tartib-taomillar va inson resurslari kiradi.
Axborot texnologiyalari	axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va undan foydalanishga qaratilgan jarayonlar, usullar va vositalar majmui. Ushbu texnologiyalar ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash, aloqa ta'minoti hamda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun kompyuterlar, dasturiy ta'minot, tarmoq infratuzilmalari va boshqa raqamli qurilmalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.
Maxfiy axborot	foydalanish huquqi qonunchilikka muvofiq cheklangan axborot.
Kompaniya	«Rubicon Wireless Communication» AJ
Foydalanuvchi	Kompaniya bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzgan (yozma shaklda yoki foydalanuvchi tomonidan konkludent harakatlarni amalga oshirish orqali) telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs.
Shaxsga doir ma'lumotlar	elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchida qayd etilgan, muayyan jismoniy shaxsga taalluqli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborot.
Axborot xavfsizligiga tahdid	axborot xavfsizligining buzilishi uchun potensial yoki real xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar va omillar majmui.
Kompaniya maqsadi	Kompaniya rahbariyati tomonidan tasdiqlangan korporativ maqsad
Kompaniyaning sayti	xizmatlar ko'rsatish, Kompaniya faoliyati va yangiliklari haqida axborot berish hamda foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqani amalga oshirish uchun foydalaniladigan rasmiy veb-resurs.
Cookie-fayllar	foydalanuvchi Kompaniya saytiga tashrif buyurganda uning kompyuteri yoki mobil qurilmasiga yuklanadigan kichik matnli fayllar bo'lib, ular foydalanuvchi afzalliklarini eslab qolish va foydalanish qulayligini oshirish orqali Sayt faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

2. HUIJATNING MAQSADI

“Rubicon Wireless Communication” AJning (keyingi o‘rinlarda — “Kompaniya”) 2024-yil 29-avgustdagi 224-p-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Axborot xavfsizligi siyosatini amalga oshirish maqsadida mazkur hujjat cookie-fayllardan foydalanish qoidalarini belgilaydi. Perfectum.uz internet-sayti (keyingi o‘rinlarda — “Sayt”) foydalanuvchilar uchun maksimal qulaylikni ta‘minlash maqsadida cookie-fayllar va shunga o‘xshash texnologiyalardan foydalanadi. Ushbu texnologiyalar taqdim etilayotgan axborotni individuallashtirish, marketing va kontent bo‘yicha afzalliklarni saqlash, shuningdek kerakli ma‘lumotlardan foydalanishni soddalashtirishga yordam beradi.

3. QO‘LLANILISH SOHASI

Mazkur Siyosat Sayt tomonidan foydalanuvchilar taqdim etgan axborotni qayta ishlash va undan foydalanish tartibini tartibga soladi.

4. UMUMIY QOIDALAR

- 4.1. Kompaniya saytida foydalanish hamda qalqib chiquvchi oynadagi 1-shaklda joylashgan “Qabul qilish” tugmasini bosish foydalanuvchining mazkur Siyosatga muvofiq cookie-fayllarga ishlov berilishiga roziligini tasdiqlaydi. Saytdan foydalanishni davom ettirgan holda, foydalanuvchi Siyosat bilan tanishganligini va uning shartlariga rozilik bildirganligini tasdiqlaydi.

“Qabul qilish” tugmasini bosish va saytdan foydalanishni davom ettirish orqali siz sayt faoliyatini yaxshilash, trafikni tahlil qilish hamda kontentni individuallashtirish maqsadida cookie-fayllardan foydalanishimizga rozilik bildirasiz. [Cookie-fayllardan foydalanish siyosati](#) bilan tanishing.

Tahrirlash

Qabul qilish

Forma №1

- 4.2. Cookie-fayllar yordamida olingan axborot xizmatlarni eng qulay shaklda taqdim etish, shuningdek foydalanuvchilarning afzalliklarini tahlil qilishga yordam beradi.
- 4.3. Saytning istalgan sahifasi ko‘rilganda, foydalanuvchi qurilmasiga sahifaning o‘zi bilan birga “cookie” deb nomlanuvchi kichik matnli fayl ham yuklanadi. Ushbu fayllar saytlarga turli foydali funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

	Cookie-fayllardan foydalanish siyosati	КБ-COOKIE-001
---	--	---------------

- 4.4. Har bir brauzer cookie-fayllarni boshqarish bo'yicha o'z sozlamalariga ega. Cookie-fayllar bilan ishlash parametrlarini sozlash bo'yicha batafsil ma'lumot olish uchun brauzeringizning "Yordam" bo'limiga murojaat qilishingiz tavsiya etiladi.
- 4.5. Operatorning sayti va uning xizmat ko'rsatuvchi hamkorlari quyidagi toifadagi cookie-fayllardan foydalanishi mumkin:
- **Majburiy cookie-fayllar** — saytning to'g'ri ishlashi, shu jumladan himoyalangan bo'limlarga kirishni ta'minlash uchun foydalaniladi. Ushbu fayllar zarur hisoblanadi va sukut bo'yicha faol bo'ladi.
 - **Analitik cookie-fayllar** — foydalanuvchilarning saytdagi harakatlarini tahlil qilish va sayt faoliyatini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi.
 - **Funksional cookie-fayllar** — individuallashtirishni ta'minlaydi, masalan, tanlangan tilni eslab qolish uchun foydalaniladi.
- 4.6. Foydalanuvchi cookie-fayllarni o'chirib qo'ygan taqdirda ham, u shaxsiylashtirilgan xizmatlardan foydalanmaguniga qadar Saytga anonim rejimda tashrif buyurishi mumkin.
- 4.7. Kompaniya foydalanuvchining rozilgisiz cookie-fayllarni uchinchi shaxslarga uzatmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.
- 4.8. Kompaniya foydalanuvchi ma'lumotlarini (shu jumladan cookie-fayllarni) noqonuniy yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxalash, tarqatish hamda boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish maqsadida barcha zarur texnik va tashkiliy-huquqiy choralarni ko'radi.
- 4.9. Texnik xavfsizlik choralari Kompaniya tomonidan amaldagi qonunchilik talablari, zamonaviy texnologiyalar darajasi, qayta ishlanayotgan axborot xususiyati hamda unga ishlov berish bilan bog'liq xavflar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

5. COOKIE-FAYLLARNI YIG'ISH VA ULARDAN FOYDALANISH MAQSADLARI

- 5.1. Cookie-fayllar quyidagi maqsadlarda, shu jumladan:
- 5.1.1. Foydalanuvchilarning Saytga tashriflari haqidagi axborotni qulay tarzda olishni ta'minlash.
 - 5.1.2. Saytni takomillashtirish maqsadida foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish.
 - 5.1.3. Foydalanuvchining afzalliklari asosida shaxsiylashtirilgan kontent va reklamalarni taqdim etish.
 - 5.1.4. Zarur axborotni qidirish va undan foydalanishni yaxshilash.
 - 5.1.5. Sayt faoliyati samaradorligini oshirish va auditoriya qiziqishlarini tushunish maqsadida tashrif buyuruvchilar soni hamda ularning sayt bilan o'zaro aloqasini baholash uchun foydalaniladi.

6. COOKIE-FAYLLARNI BOSHQARISH

6.1. Foydalanuvchi cookie-fayllarni quyidagi usullar orqali boshqarishi mumkin:

- Brauzer sozlamalari orqali ularni saqlashni o‘chirib qo‘yish yoki ulardan foydalanishni cheklash;
- Saqlangan cookie-fayllarni istalgan vaqtda qo‘lda o‘chirib tashlash;
- Saytda cookie-fayllardan foydalanilganda ular haqida bildirishnomalarni sozlash.

6.2. Foydalanuvchi cookie-fayllarni o‘z brauzeri sozlamalari orqali boshqarishi mumkin:

- cookie-fayllarni o‘chirish;
- cookie-fayllarni bloklash yoki ularga ruxsat berish;
- cookie-fayllar haqida bildirishnomalarni sozlash.

7. COOKIE-FAYLLARNI SAQLASH MUDDATI

7.1. Ayrim cookie-fayllar foydalanuvchi Saytga kirgan paytdan boshlab brauzerdagi mazkur sessiya yakunigacha amal qiladi. Brauzer yopilgandan so‘ng ushbu fayllar keraksiz bo‘lib qoladi va avtomatik ravishda o‘chiriladi.

7.2. Ayrim cookie-fayllar qurilmada brauzer sessiyalari oralig‘ida ham saqlanib qoladi — ular brauzer yopilgandan keyin o‘chirilmaydi. Bunday cookie-fayllar “doimiy” cookie-fayllar deb ataladi.

8. KELISHUVGA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH

8.1. Kompaniya mazkur Siyosatga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Yangilangan tahrir Kompaniyaning saytida kuchga kirish sanasi ko‘rsatilgan holda joylashtiriladi.